**Mavzu: Nok. Latif Mahmudov**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go‘zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakillantirish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe’lida uchrab turadigan ba’zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to‘la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

badiiy adabiyotda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash;

yovuzlik va xunuklikdan nafratlana bilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

bir kunlik xarajatlarni hisoblashni bilish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**



Latif Mahmudov 1933-yilning 1-iyul kuni Toshkent shahar Mirobod mahallasida tavallud topgan.Yozuvchining ijodiy faoliyati 1956- yildan boshlangan bo‘lib, u asosan, bolalar va o‘smirlar uchun hikoya, qissa, pyesa hamda kinossenariylar yaratdi. Shu kungacha adibning o'ttizdan ortiq kitoblari nashr etilgan. Latif Mahmudov 2000-yilda

“Sog'lom avlod uchun” ordeni bilan taqdirlangan.

Nok

Latif Mahmudov

Bu yerga kelganimizga uch-to‘rt oy boldi. Men ham, oyim ham, dadam ham yangi uyga, qo‘ni-qo‘shnilarga allaqachon o'rganib ketdik. Buvim esa xuddi biror narsasini yo‘qotgandek xayol surib qolar, turib-turib eski hovlini qo'msab qoladi:- Eski mahallaga bir borib kelsak-chi, a?Bu gap menga yoqmaydi.- Qiziqsiz-a, buvi, - deyman, - eski mahalla qoldimi? Shunda buvim birdan bo'shashib:- Eshikning oldidagi nok turganmikan? - deydi. Buvimga hayronman. Ko‘chayotganimizda boshqa narsalar qolib nokka achingan. Men-ku, nokni eslasam yuragim g'ash bo‘ladi. Kesilib ketsin deb yuraman.Buvimning xomushligi bahona bo‘ldi-yu, kiyindim. Buvimning oldiga kirib:- Qani, yuring, - dedim.Shu tobda bechora buvim yosh boladek quvonib ketdi. Mana, ikkimiz avtobusda eski mahallaga ketyapmiz.Buvim oynadan bosh chiqardilar, ilhaq bolib nimanidir qidirdilar. Men esa qani edi, nok kesilib to‘nka-po‘nkasini ham buldozer qo‘porib tashlagan bo'lsa, deb boryapman.Bunday deyishimning sababi bor.Ayni nok pishig'i. Ertaga tomosha degan kuni allavaqtgacha uxlayolmay yulduzlarga qarab yotdim. Tongga yaqin ko'zim ilingan ekan, peshonamga tushgan allaqanday mushtdan dodlab o‘rnimdan turib ketdim. Qarasam, yostig'imning ustida bir dona nok dumalab yotibdi. Eng yomoni, hash-pash deguncha chap ko‘zim ko'karib, qovoqlarim shishib chiqdi. Bunaqa bashara bilan ko'chaga ham chiqib bo'lmas edi.0 ‘sha kuni hech qayoqqa bormay, alamimdan dumalab yotdim. Keyin chidayolmay, devorga chiqdim-u, kattakon bir shoxini arralab tashladim. 0 ‘sha kuni dadamning koyiganini hisobga olmaganda butunlay alamimdan chiqqan edim.Avtobusdan tushdik. Jin ko‘chalardan, paxsa devorlardan nom-nishon qolmagan. Qator-qator yangi uylar, ba’zilari ikkinchi-uchinchi qavatgacha ko‘tarilgan. Tumshug‘i havoga sanchilgan ko'tarma kranlar taqa- taq to'xtagan, hamma ovqatdan so‘ng nokning quyuq soyasida hordiq chiqarardi.Biz ham buvim bilan bir chekkada o'tirib dam oldik. Ishchilardan biri shipillab nokning ustiga chiqib silkitgan edi, nok duv etib to'kildi. Qiy-chuv, kulgi bilan qizlar nokni terib o'rtaga qo‘yishdi. Men ham oldimga tushganlarini cho'ntakka urdim. Nok qoqqan kishi pastga qarab:- Bo'ldimi? - dedi.- Ha, - chuvirlashishdi qizlar. - Ertagaga ham qolsin. U ohista tusha boshladi va xuddi men kesib tashlagan joyga kelganda, nazarimda, beixtiyor to‘xtagandek bo'ldi. Men o‘zimni allanechuk sezdim. Buvimga bildirmay sekin nokka qaradim. O'zim ham eng chiroyli shoxini olib tashlagan ekanman. Shu tobda nok bir qanoti singan burgutni eslatdi! - Buvi, - dedim nok chaynab, - nega shu nokni yaxshi ko‘rasiz-a? Buvim esa hadeganda javob bermadi.- Buni, - dedi nihoyat xayol bilan, - buni rahmatli buvang ekkan. Odamlarga ekkan. Ana shu tagida o'tirgan odamlarga ekkan, bolam!

Azim tup nok esa jaziramadan odamlarni bag‘riga chorlab, go‘yo buvimning gaplarini tasdiqlagandek, tepamizda sirli shovullar edi.

qo‘msamoq- sog'inib, uni ko‘rishni istamoq

ilhaq- umidvorlik bilan kutuvchi, mushtoq

jin ko'cha - kishi nazari tushmaydigan tor ko'cha

“Savollar gulshani” mashqi. Quyidagi iboralardan foydalanib, hikoya asosida uchta savol tuzing.

1. Nima uchun...?
2. Agar ... bo'lsa, nima bo'ladi?
3. Tasavvur qilaylik...?

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani gapirib bering va mazmunini aks ettiruvchi rasm chizing

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ _______________

*(imzo)* *(sana)*

**22- dars STO’**

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Temir qoziq. O’tkir Hoshimov**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go‘zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakillantirish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe’lida uchrab turadigan ba’zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to‘la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**
turli yo‘nalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san’atga doir) kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish;
yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish;
o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunish, o‘zini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;
o‘qib-o‘rganib borish orqali bilimini oshirib borish.
**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**
jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**



O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov Toshkentning Do‘mbirobod dahasida 1941 -yilning 5-avgustida tavallud topgan. Adibning jami nashr etilgan asarlari ellikdan ortiq bo lib, ularning umumiy adadi qariyb ikki milliondan oshadi. O'tkir Hoshimovga samarali ijodiy mehnati uchun “O’zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni berilgan. Yozuvchi “Mehnat shuhrati” , “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan mukofotlangan.

Qoziq

O'tkir Hoshimov

Tengqur bolalar bilan jiydazorda mol boqardik. Adashmasam, o‘shanda beshinchi sinfda o‘qirdim. Jiydazorda o‘t ko‘p. Bekinmachoq o'yriashga ham qulay joy. Faqat kun botar-botmas, har kim o‘z molini yetaklab, uyiga jo‘nar, jiydazorda ajina bor, yolg'iz yursang, og‘zingni qiyshaytirib ketadi, degan vahima gaplar yurardi. Mening sigirim yuvosh bo‘lsa ham, bir aybi bor. Nuqul qozig'ini sug'urib daydib ketardi. Bilasiz, qoziq yog'ochdan yasaladi. Har kuni qoqavergandan keyin boshi yediriladi, sinadi. Qarabsizki, boshqa qoziq yasash kerak...Shunday kunlarning birida temir qoziq topib oldim. Boshida halqasi ham, hatto uzilib qolgan bir-ikki qarich arqoni ham bor. O‘rtoqlarimdan “Kimning qozig'i?” - deb so'rasam, egasi chiqmadi. Sevinib ketdim. Sigirimni yangi qoziqqa bog'lab qo'ydim. Endiyam sug'urib ko‘rsin-chi! O‘sha kuni emas-ku, ertasiga g‘alati ish boldi. Kechasi endi uxlagan ekanman, oyim: “Adang chaqiryaptilar, turarkansan” , - deb qoldi. Hayron bo‘lib ayvonga chiqsam, otam qovog‘ini uyib o'tiribdi. Qo‘lida o ‘sha temir qoziq.- Qayoqdan olding buni? - dedi tahdid bilan. Otamdan qattiq hayiqardik. Qo'rqib ketdim. - Topib oldim.- Qayerdan?- Jiydazordan.- Qaysi jiydaning tagidan?- Qiyshiq jiydaning.- Jiydaning to‘g‘risi bo‘lmaydi. Qaysi birining tagidan? Ko‘rsang, taniysanmi o‘sha jiydani?- Taniyman, - dedim qo‘rqa-pisa. Otam qo'limga qoziqni tutqazdi.- Xuddi o‘sha jiydaning tagiga tashlab kelasan. Yuragim orqamga tortib ketdi. Jiydazorda ajina borligi esimga tushib, talmovsirab qoldim. Ayvon burchagida turgan oyim yalindi: - Tashlab keladi, adasi, tong otsin, albatta, tashlab keladi. - Sen aralashma! - dedi otam e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan ohangda. Uyg‘onib, ichkaridan chiqqan akam hammasini tushundi, shekilli, nimchasini kiya boshlagan edi, otam jerkib berdi:- Sen qayoqqa?- Birga borib kelamiz. - Yo‘q! - dedi otam shiddat bilan. - O‘zi topganmi, o‘zi oborib qo‘yadi. Kuz. Salqin tushib qolgan. G‘ira-shira ko'roydin... Qo'limda muzdek temir qoziq bilan y olga tushdim. Jiydazor-ku, uzoq emas. Ammo unga yetguncha Darxon arig‘i ustidagi ko'hna ko‘prikdan o‘tish kerak. Odam yolg’iz qolsa, kunduzi ham qo'rqadigan qing'ir-qiyshiq jiyda chakalakzori orasiga kirish kerak. Aksiga olib yaramas qoziqni Qonqus anhori bo‘yidagi daraxt tagidan topganman...Salqin havodanmi, qo'rquvdanmi oyog‘im qaltirab ko‘prikdan o‘tdim. G‘ira-shira ko‘roydinda sirli sukunat cho‘kkan jiydazorga kirdim. Nazarimda, har bir daraxt orqasida nimadir berkinib turgandek edi. Qayerdadir boyqush “huv-huv”ladi... Rostini aytsam, Qonqus bo‘yigacha bormadim. Qo‘limdagi qoziqni kuchim boricha uloqtirib, orqaga qarab yugurdim.Oyim bilan akam ko'chaga chiqib kutib turishgan ekan... Labimga uchuq toshib, bir-ikki kun achishib yurganini hisobga olmaganda, hech nima bo‘lmadi... faqat oradan bir oycha o ‘tgach, otam shu masalaga qaytib, bir gap aytdi:- Sen topib olgan qoziqqa bog‘langan sigir arqonini uzib, adashib ketgan bo‘lsa, yoki birov o‘g‘irlagan bo'lsa- da, qoziq sening uyingdan chiqsa, egasi seni o‘g‘ri gumon qilsa, nima bo‘ladi?

qoziq - yerga qoqish uchun mo’ljallangan uchi o‘tkir yog‘och yoki temir

talmovsiramoq - dovdiramoq, o'zini yo‘q o’tib qo'ymoq


Maqollarning oynadagi aksini o‘qing va hikoyaga bog‘lab, mazmunini aytib bering.

1. Bola ko'rganini qilar, ota – bilganini.
2. Ota-bola – bir bog',
Biri – gul, biri – bog'bon.
3. Ota-aql, ona-idrok.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani o‘qing. Shaxsini o'zgartirib, qayta hikoya qilib bering.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ____________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Ukam. H. Imonberdiyev**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go'zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg'ularini shakillantirish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe'lida uchrab turadigan ba'zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to'la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish;

kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

turli yo'nalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san'atga doir) kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish;

yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish;

o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;

o'qib-o'rganib borish orqali bilimini oshirib borish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Hamza Imomberdiyev 1954-yil 21-dekabrda qo'shni Qozog'iston Respublikasining Chimkent viloyatiga qarashli Suzoq qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. Shoir uzoq yillar "Tong yulduzi" gazetasining adabiyot bo'limini boshqardi, "Cho'lpon" bolalar nashriyotida umrining so'nggi damlarigacha muharrir vazifasida xizmat qildi. lining "Quvnoqlar quvonchi", "G'aroyib pufak", "Shokoladxonlar", "Kulgi shaharchasi" singari o'ndan ortiq kitoblari nashr etilgan.




So'zlardagi harflarni kattalashib borish tartibida o'qing.

AsalomtLki – utnma oiyKbL

Ukam

Hamza Imomberdiyev

Boya kelib "Tez yordam"
Ukamni olib ketdi.
To'xtamasdan, damo-dam
Signalin chalib ketdi.
Orqasidan termilib
Qoldim, ko'nglim buzildi.
Ushbu damda ukamning
Qadri juda sezildi.
Tushunolmay qoldim men
Bilmam, nima bo'lyapti?
Ko'zim ham o'z-o'zidan
Jiq-jiq yoshga to'lyapti.
Ukajonim, sog'ayib,
Tezroq qaytgin yonimga.

Bundan keyin yashayman
Qarab sening rayingga .
Kerak bo'lsa, bog'chaga
Chiqmay senga qarayman.
Kichikmasman, har qalay,
Ovutishga yarayman.
O'yinchoqning hammasi
Senga bo'lsin, ola qol.
Mayli, simi uzilsin,
Rubobni ham chala qol.
Ne xohishing bor bo'lsa,
Bajaraman, aytsang bas.
Ukajonim, sog'ayib
Tezroq uyga qaytsang bas.

ra'y - xohish



**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O'quvchilarni rag'batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** She'rni ifodali o'qing. Hikoya mazmuniga mos maqol yozing. Oila a'zolaringizga 3 tilak yozing.

**O'IBDO':** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu:**
**Maqsadlar:**
**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go'zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg'ularini shakillantirish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe'lida uchrab turadigan ba'zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to'la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**
mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish;
kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.
**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**
jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.
**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**
bir kunlik xarajatlarni hisoblashni bilish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.
**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**



Habibulla Qodiriy - shoir va yozuvchi, o'zbek adabiyotida roman janri asoschisi Abdulla Qodiriyning o'g'li bo'lib, 1919-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. Habibullo Qodiriyning "Nilufar" hikoyalar to'plami, "Otam haqida" nomli xotiralar kitobi chop etilgan.

"Tarbiya" haqida 3 ta fikr ayting va 2 ta savol tuzing. Tarbiya so'ziga ma'nodosh so'zni toping.

Tarbiya

Habibullo Qodiriy

Dadam - Abdulla Qodiriy bizni xoh oilada, xoh tashqarida bo‘lsin, zimdan kuzatib turar edilar, lekin sira quruq nasihatgo‘ylik qilmas, yo‘rig‘i bilan ikki og'iz ma’noli gap aytar, shuning o‘zi bizga “ham oshlik”, “ham nonlik” bo'lar edi...- Ada, menga kitob olishga pul kerak. - Xo‘p, qancha? - Yaxshi, - derdilar va so'raganimni berardilar. Biroq pulni osongina olib ketdi, deb o'ylaysizmi? Hech ham. Kechga tomon chaqirib so‘rardilar: - Qolgan pul qani? Dadam menga faqat muzqaymoqqa ruxsat etardilar, qolganini qaytarib olardilar. Maktabga ketishimda ham pulni juda o‘lchovli, tramvayga va bir-ikki stakan suvga loyiq berardilar. Peshinlik ovqatni-ku, uydan jildimga solib olishimga buyurardilar. U kishining bizga nisbatan bunchalik qattiq qo‘l bo’lmishlaridan bibim goho ranjirdilar.- Juda bolaga mehring qattiq, Abdulla...- Gap qattiqlikda emas, oyi, pulga o'rgatmaslikda, pul bolani buzadi... - der edilar jiddiy va o‘z “qoida”lariga amal qilishda davom etaverardilar. U kishi kiyim-kechak vajidan ham bizni ortiqcha siylamas, el-yurt qatori kiyintirar edilar. Bir vaqt, hali tevaragimizda rasm bolmagan choqda, men velosiped havas qilib qoldim. Tabiiyki, velosiped oldirishga bibimni vosita qildim. Shunda dadam dedilar:- Velosiped olib berishga aqcham bor, lekin olib bermayman...- Nega, bolam?- Ayting-chi oyi, yon-verimizda kimning bolasi velosiped minayotir?- Birov bilan nima ishing bor? Tushunmaysiz... Ko'pchilik bilan barobar borish kerak. Habibulla velosiped minsa, boshqa bolalarning ko‘ngli o'ksiydi, qo'shnilar uyida janjal bo'ladi, ular siz- mendan ranjiydilar.U kishi bizni kino, teatr, sayil-tomoshalarga ham hisobli yuborar va albatta, kimlar bilan ketayotganimizni, ularning qanday shaxsligini aniqlar edilar...Men xotira yozayotirman. Ehtimol, dadamning bu xil oila tarbiyasi borasidagi aqidalari hozirgi kunimizga xiyol yopishib tushmas. Men u vaqtlarda dadamning biz bolalarga nisbatan bunchalik qattiqqo‘l bo'lishlaridan, ehtimol, xafa bo'lgandirman ham. Biroq hozir u kishining xislatlariga faqat rahmat aytaman.

jild - ilgari vaqtlarda maktab bolalar portfeli o‘rnida ishlatiladigan xalta

bibi- buvi

xiyol - ozgina, biroz

aqida - e’tiqod, ishonch



Maqollarni o'qing va mazmunini hikoyaga bog‘lang.

1. Ota g'ayratli bo'lsa, Bola ibratli bo'lar.
2. Suv bilan ekin o'sar, Tarbiya bilan – odam.



Hikoyada berilgan quyidagi gaplarga qanday munosabat bildira olasiz?

Gap qattiqlikda emas oyi, pulga o'rgatmaslikda, pul bolani buzadi...

Habibulla velosiped minsa, boshqa bolalarning ko'ngli o'ksiydi, qo'shnilar uyida janjal bo'ladi, ular siz-u mendan ranjiydilar.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani o‘qing va gapirib bering. Hikoyani oila davrasida muhokama qiling. Oila a’zolaringizning hikoya mazmuni haqidagi fikrlarini yozing.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Alisherning onasi. Abdulla Oripov**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go‘zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakillantirish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe’lida uchrab turadigan ba’zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to‘la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

turli yo‘nalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san’atga doir) kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish;
yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish;
o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunish, o‘zini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;
o‘qib-o‘rganib borish orqali bilimini oshirib borish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

badiiy adabiyotda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash;
yovuzlik va xunuklikdan nafratlana bilish;
yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Ona haqida 3 ta fikr ayting, 2 ta savol tuzing, 1 ta so‘z bilan o‘xshatish toping. Taniqli bolalar shoiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi a’lochisi Obid Rasul o‘z ijodiy faoliyatini jajji o‘g‘il-qizlarimiz uchun quvnoq she’rlar yozishga bag'ishlagan. Uning “ Ko‘k chakmonli yigitcha”, “Olmazor” , “Quvnoq bolalar” , “Asal amaki”, “Sadaf tishli amaki” , “Chashma” , “Keling bizning polizga” singari talaygina kitoblari bosib chiqarilgan. Obid Rasul uzoq yillar davomida maktabda o‘qituvchi bolib ishlaganligi uchun ham bolalarning fe’l-atvorini juda yaxshi bilardi.



Ona

(Alisher Navoiyning onasi - Ma'suma begimga)

Ona - eng ulug' zot,
Bag'ri - keng dunyo.
U bilan yechilar
Ko'plab muammo!
Kiprigida asrab -
Jon parchasini,
Lang ochgan olamning
Darichasini.
Yemakni o'rgatgan,
So'zni - kalomni,
Odob ila axloq
Va assalomni.
O'rgatgan zukkolik,
Rostlik, poklikni.
Shirin suxanlig-u
Chin o'rtoqlikni.
Alisher onasi -
Ma'suma - begim!
Sizdek ulug' zotga
Keldi so'z degim.

U dono sarbondir
Umr yo'lida.
Ne-ne buyuk zotlar
O'sgan yo'lida.
Navoiydek buyuk,
Daho berib - siz,
Avlodlarni abad
Xushnud qilibsiz.
Besh yarim asrkim
Alisher - tirik.
O'qir xalq merosin
Qoqmasdan kiprik.
Halollik - ma'rifat,
Do'stlik - adolat,
Bosh mavzu shoirda
Vijdon - diyonat.
Uning umri quyosh
Umridek uzun.
Siz ham, begim, borsiz
Har dilda bugun.

Har bir qatorga ona so'ziga bittadan yangi so'z qo'shib, gap tuzing.







**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O'quvchilarni rag'batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** She'rni ifodali o'qing. Fikrni davom ettiring: "Ona borki..."

**O'IBDO':** ____________________ ____________ ____________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Ona kaklik A. Suyun**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go‘zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakillantirish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe’lida uchrab turadigan ba’zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to‘la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**
mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish;
kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.
**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**
turli yo‘nalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san’atga doir) kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish;
yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish;
o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunish, o‘zini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;
o‘qib-o‘rganib borish orqali bilimini oshirib borish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**



Ona kaklik

Azim Suyun

Hayot - murakkab. Unda umr kechirish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Ammo qiyinchilik, og‘irchilikdan, xatarlardan qo‘rqavermaslik kerak. Inson aql, tafakkur chirog i har qanday zulmatni yoritishga qodir, yo lingizdagi ko‘ringan- ko‘rinmagan to‘siqlarni, g'ovlarni surib tashlashda sobit. Insonni qo‘yib turaylik, tabiatdagi har bir jonzot ham tiriklik uchun kurashib yashaydi. Kaklik - sodda qush. Lekin uning sodda bo'lib qolishga haqqi yo‘q.Irg‘ayli darasining qir-adirlarida mol boqib yurgan kezlarim bunga o‘zim guvoh bo‘lganman.May oyining o'rtalarida ona kaklik tuxum bosib yotganiga duch keldim. Uning uyasi bir tup shuvoq ostida edi. Bolalik ekan-da, uni tutmoqchi bo'ldim. Unga qarab yo'naldim. Ona kaklik noxushlikni tez payqadi. Birdan uyasidan otilib chiqdi va pastga - qiyalik bo‘ylabdumalay ketdi. Ha, u aynan dumalab borardi. Orqasidan quva boshladim, yetay deganimda dumalashni tezlatdi. Quvaverdim. Yana yetay-yetay dedim. U yana tezladi. Quvib-quvib, daraning ichiga tushib qoldim. Va shunda ona kaklik dumalashdan lahzada turdi-da, uch-to‘rt qadamcha yugurgiladi-yu, uchib ketdi.Ko'rdingizmi, sodda qush deganimiz, ona kaklik menday bir aqlli cho'pon bolani qanday chalg'itib, tuxumlarini, bolajak jo ‘ja-bolalarini asrab qoldi. U ayyormidi, yo‘q, degim keladi bugun, ona kaklik aqlli, oqila edi.Men o‘shanda, tag‘in ortimga qaytib, uning tuxumlarini olib ketishim mumkin edi. Ammo, birinchidan, uyadan ko‘p uzoqlab ketgan edim. Ikkinchidan, tuxumlarni olib nima ham qilardim. Mol boqib yursam, mol boqish oson emas. Qolaversa, birorta kurk tovuq tayyor emaski, tuxumlarni bostirsam, jo ja ochtirsam. Uchinchidan, otamning o'giti yodimda edi: “Qush uyasini buzma, tuxumlarini sindirma, polaponlariga ozor yetkazma, hatto ilon bolasini ham o‘ldirma!” Men podalar o‘tlab yurgan sayhonlik sari ketdim.

irg'ay - yog'ochi qattiq, po‘sti qizg'ish buta

shuvoq - mayda oqish bargli, ko‘p yillik o'simlik

dara - tog’ oralig‘idagi yo‘l, jarlik

Hikoyani qismlarga bo’ling.

1. Kaklikka berilgan ta’rifni hikoyadan topib o'qing.
2. Turli xil vaziyatlarda qanday yo'l tutish kerakligi haqidagi gaplarni o'qing.
3. Hikoyadan uning asosiy g'oyasi ochib berilgan qismini topib o‘qing.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani qismlarga bolib, gapirib bering. Hikoyada ta’riflangan tabiat manzarasini chizing.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

## 28- dars Bo’lim yuzasidan takrorlash

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Nazorat ishi-7**
**Maqsadlar:**
**a) ta'limiy maqsad-**oʻquchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, toʻgʻri, ongli, ifodali oʻqish koʻnikmalarini takomillashtirish, lugʻat boyligini oshirish, oʻzbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali ogʻzaki nutqini oʻstirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat goʻzalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuygʻularini shakillantirish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**oʻquvchilarning mavzuga oid bilim, koʻnikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe'lida uchrab turadigan ba'zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga toʻla lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali oʻquvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**
mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish;
kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.
**Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**
turli yoʻnalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san'atga doir) kitoblarni muntazam oʻqish va oʻrganish;
yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish;
oʻzining xato va kamchiliklarini toʻgʻri tushunish, oʻzini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;
oʻqib-oʻrganib borish orqali bilimini oshirib borish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma oʻzi uchun.
**Nazorat:** oʻquvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** oʻquvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Boʻlimlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | Oʻtgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yoʻqlama qilish, oʻquvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash.** oʻtilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob oʻtkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili oʻtkazilib noʻtoʻgʻri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan koʻrsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**
**Matn boʻyicha savollar (10 balldan)**
Matn:
**Kuzgi kunlar**
Kuz kelganda tabiat rang-barang tus oladi. Daraxtlar sariq, qizil va jigarrang ranglarga kiradi. Bolalar maydonda barglar bilan oʻynaydi, qushlar esa daraxtlarda tinch turadi. Shahar koʻchalari esa barg bilan qoplanadi.
**Savollar:**
1. Kuz faslida tabiat qanday koʻrinishga ega boʻladi?
2. Daraxtlarning ranglari qanday?
3. Bolalar maydonda nima bilan oʻynaydi?

4. Qushlar qayerda turadi?
5. Matn qaysi fasl haqida?

**Lug‘at va imlo (10 balldan)**

1. Quyidagi so‘zlarni to‘g‘ri yozing:
   a) rang-(b)arang / rang-barang
   b) beqar(o)r / beqaror
   c) q(o)rlik / qorlik
2. To‘g‘ri variantni belgilang:
   a) daraxt(l)ar / daraxtlar
   b) shahar ko‘ch(a)lari / shahar ko‘chalari

**To‘ldirish vazifasi (5 balldan)**

1. Kuz faslida daraxtlar ___________ ranglarga kiradi.
2. Bolalar maydonda ___________ bilan o‘ynaydi.
3. Qushlar ___________ turadi.
4. Shahar ko‘chalari ___________ bilan qoplanadi.
5. Tabiat ___________ tus oladi.

**Qisqa tarif yozing (5 balldan)**

Quyidagi so‘zni qisqa qilib ta’riflang:

- barg

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani qismlarga bolib, gapirib bering. Hikoyada ta’riflangan tabiat manzarasini chizing.

**O‘IBDO‘:** ___________________________ ________________ _______________

*(imzo)* *(sana)*

**30- dars STO’**